

JANUBIY FARG‘ONA SUG‘ORILADIGAN BO‘Z-O‘TLOQI TUPROQLARINING UMUMIY FIZIK XOSSALARI

Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna

b.f.f.d.

Farg‘ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada Shohimardonsoy konus yoyilmasining allyuvial-prolyuvial yotqiziqlari ustida shakllangan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning umumiy fizik xossalari keltirilgan. Konus yoyilma tuproqlarida profil bo‘ylab pastki qatlamlar tomon tuproq hajm massasi ortib boradi. Umuman olganda bo‘z tuproqlar mintaqasida haydov qatlamining hajm massasi konus yoyilmaning quyi tomon kamayishi qayd etildi.

Kalit so‘zlar: bo‘z tuproq, morfogenetik, agroirrigatsion qatlam, dehqonchilik.

Dolzarlighi. Bugungi kunda Farg‘ona vodiysi sharoitida sug‘oriladigan maydonlardan oqilona va samarali foydalanish, bu yerlarni unumdorligi yanada oshirish muhim dolzabr muammolar qatoridan joy oladi. O‘simliklar o‘sishi, hosil berishi uchun zarur bo‘lgan oziq moddalarni va suvni tuproqdan oladi. Tuproqning bu qo‘rsatkichi ko‘plab xossa va xususiyatlari bilin belgilanib, uning unumdorlik darajasini ko‘rsatadi. Bu jihatdan uning umumiy fizik xossalari asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, bu xossalarni o‘rganish qishloq xo‘jaligida o‘simliklardan mo‘l hosil olish garovi hisoblanadi. Shuning uchun ham yerlarni o‘zlashtirganda tuproqning umumiy fizik xossalari ahamiyat berish kerak bo‘ladi.

Tadqiqot usuli. Tadqiqot ishlari olib borilgan Shohimardonsoy konus yoyilmasining allyuvial-prolyuvial yotqiziqlari ustida shakllangan bo‘z tuproqlar mintaqa kamarida joylashgan turli darajada madaniylashgan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlar turli davrda o‘zlashtirilgan. Tadqiqot usullari asosini tuproqshunoslikda umumqabul qilingan dala, laboratoriya va kameral sharoitlardagi standart uslublar tashkil etadi. Tadqiqotning asosiy usuli tariqasida V.V.Dokuchayevning morfogenetik, kesma usuli qabul qilingan.

Tadqiqot natijalari. Biz izlanishlar olib borgan Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani «Damko‘l Oqtom Guliston» massividagi eskidan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproq bo‘lib, ushbu fermer xo‘jaligi maydoni eskidan sug‘oriladigan, allyuvial-prolyuvial va lyossimon yotqiziqlar ustida shakllangan, mexanik tarkibi o‘rta va og‘ir qumoqli, sho‘rlanmagan, darajasiga ko‘ra eskidan sug‘oriladigan o‘rta

madaniylashgan tuproqlar guruhiga kiradi. Xo‘jalik tuproqlari o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra eskidan sug‘oriladigan o‘rtacha madaniylashgan tuproqlar guruhiga kiradi.

Tuproqlar o‘ziga xos umumiy fizik xossalarga ega bo‘lib, bularga solishtirma, hajm og‘irligi va g‘ovakligi kiradi. Bu xossalari ham uning kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalari kabi tuproq unumdorligida muhim ko‘rsatkich tariqasida o‘rganiladi. O‘simliklar ildiz sistemasi suvni o‘zlashtirishi va havo bilan nafas olishi tuproqning umumiy fizik xossalari bilan chambarchas aloqada bo‘ladi. Tuproqlarga ishlov berishning yengil yoki og‘irligi ham uning fizik xossalari bilan bog‘liq. Mikroagregatlardan tarkib topgan tuproqlar haydalma qavatining turg‘un zichligi $1,3 \text{ g/sm}^3$ gacha borib, umumiy g‘ovaklik 46,3-50,8% tashkil etadi. Tuproq va uning ona jinslarida hajm massa $1,30-1,46 \text{ g/sm}^3$ oralig‘ida tebranadi. Solishtirma massa tuproq mexanik tarkibi, gumus miqdori va dehqonchilik darajasiga bog‘lik ravishda 2,65-2,72 g/sm^3 oralig‘ida o‘zgargan bo‘lsa, tuproq g‘ovakligi mexanik tarkib va gumus miqdoriga bog‘liq holda 46,3-51,3% ga teng bo‘ldi.

Xo‘jalik tuproqlarining umumiy fizik xossalari

Kesma t/r	Chuqurligi, sm	Og‘irlik, g/sm^3		Umumiy g‘ovaklik, %
		hajm	solishtirma	
Eskidan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproq				
6/AX	0-25	1,31	2,66	50,8
	25-35	1,37	2,68	48,9
	35-66	1,42	2,69	47,2
	66-98	1,45	2,71	46,5
	98-140	1,46	2,72	46,3

Qishloq xo‘jalik ekinlarining meyorida o‘sib, rivojlanishi uchun asosiy ildiz tarqalgan tuproq zonasida ma‘lum fizik tartibotli sharoitlarning bo‘lishi taqozo etiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, zichlanish jarayoni tuproqning fizik xususiyatlariga noxush ta‘sir etuvchi hodisa deb tushinilishi shart.

Agronomik nuqtai nazardan tuproq zichligini taxminiy baholash maqsadida N.A.Kachinskiy (1950) tomonidan baholash shkalasi taklif qilingan. Ma‘lumotlarga solishtiradigan bo‘lsak, konus yoyilmaning o‘rganilgan o‘rtacha zichlashish eskidan sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarning ostki qatlamida yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatildi. Sug‘orish davomiyligi ortishi bilan tuproqlarning quyi qatlamlari zichlashib boradi, deb xulosa qilishi mumkin.

XULOSA

Sug‘orish jarayonida tuproqning umumiy fizik va fizik-mexanik xossalarini bilish, boshqarish tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tuproq suv sarfi, tartiboti va oziqa elementlar miqdorining o‘zlashtirilishi, agrotexnik tadbirlar sifati tuproq fizik xossalari asosida belgilanadi. Konus yoyilma tuproqlarning hajm massasi tipik bo‘z tuproqlarning genetik qatlamlari quyi tomon asta

sekinlik bilan ortgan. Tuproqning solishtirma massasi tuproqning o'zlashtirish darajasi va mexanik tarkibiga bog'liq ravishda kamaygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abduxakimova, X. A., & Isagaliyev, M. T. (2020). Izmeneniye sodержaniya myshyaka i tyajelyx metallov v serozemax Yuga Fergаны. Nauchnoye obozreniye. Biologicheskkiye nauki,(4), 16-21.
2. Абдухакимова Х. А. Шохимардонсой конус ёйилмаси сугориладиган тупрокларининг геокимёси //Б. ф. ф. д. дисс. автореф. Фаргона. – 2021. – Т. 42.
3. Isag'aliyev M., Abduxakimova X., Mirzajonov I. Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarining agrokimyoviy xossalari //Fanning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari.–F.: FDU. – 2018. – С. 84-86.
4. Murodjon I., Gulyam Y., Khusnida A. Geochemistry of biomicroelements in irrigated serozems in the south of Fergana//European science review. 2018. T., №. 11-12. С. 25-27.
5. Исагалиев, М. Т., Юлдашев, Г., Абдухакимова, Х. А., & Обидов, М. В. (2020). Биомикроэлементы в сероземах юга Ферганы. In Аграрная наука-сельскому хозяйству (pp. 364-366).
6. Isag'aliyev, M., Abduxakimova, X., & Mirzajonov, I. (2018). Sug 'oriladigan o 'tloqi saz tuproqlarining agrokimyoviy xossalari. Fanning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari.–F.: FDU, 84-86.
7. Абдухакимова, Х., Сотиболдиева, Г., Юлдашев, А., & Маматов, Ж. (2022). Сугориладиган буз тупрокларининг агрокимёвий хусусиятларини дехкончилик таъсирида узгариши.". Агроилм" жур. Т, (4), 57-58.
8. Obidov, M., Isagaliev, M., Abdukhakimova, K., & Madalova, M. (2021). COEFFICIENT BIOLOGICAL ABSORPTION OF HEAVY METALS IN MEDICINAL PLANTS: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1339>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06).